


**Qo'llash.** Atamalarni ta'rifi bilan mos ravishda juftlab ko'rsating:

Nº	Atamalar	Javoblar	Tarifi
1.	Embriogenez	A	Organizmlarning individual rivojlanishi.
2.	Keksaygan davr	B	Organizmning tug'ilishidan umrining oxirigacha bo'lgan davr.
3.	Voyaga yetgungacha bo'lgan davr	D	Zigotadan boshlanib, tug'ilguncha davom etadigan davr.
4.	Postembriogenez	E	Jinsiy organlarning faoliyati to'xtaydi, organizm nobud bo'ladi.
5.	Ontogenez	F	Bu davrda tuxumdan chiqqan yoki tug'ilgan organizm o'sadi va rivojlanadi.

**Tahlil.** Postembriogenezning voyaga yetgungacha bo'lgan davrida kuzatiladigan to'g'ri va noto'g'ri (metamorfozli) rivojlanish jarayonlarining o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qiling.

**Sintez.** Baqa ontogenezidagi rivojlanish bosqichlari va davrlarini aniqlang.



**Baholash.** Kolorado qo'ng'izining urg'ochisi 2400 ga yaqin tuxum qo'yadi. Tuxumlardan lichinkalar rivojlanadi. Har bir lichinka bir mavsumda 2 g gacha, voyaga yetgan organizmlar esa 4 g kartoshka o'simligining yashil massasi bilan oziqlanib ziyon keltiradi. Har yoz mavsumida 1 juft qo'ng'izlarning 3 ta avlodni rivojlanishi ma'lum bo'lsa, 2 yil davomida qo'ng'iz avlodni kartoshka dalasiga qancha ziyon yetkazishini hisoblab toping.


#### Topshiriq

To'liq metamorfoz bilan rivojlanuvchi organizmlarning rivojlanish bosqichlari aks etgan videolavha tayyorlang.

### 10.7. AMALIY MASHG'ULOT. HAYVONLARNING TO'G'RI VA NOTO'G'RI RIVOJLANISHINI QIYOSIY TAHЛИL ASOSIDA O'RGANISH

**Maqsad:** hayvonlar ontogenezidagi rivojlanish bosqichlarini aniqlab, qiyosiy tahlil qila olish.

Hayvonlar ontogenezi embriogenez va postembriogenez bosqichlaridan iborat.



**Bizga kerak:** hasharotlarning kolleksiyalari, rivojlanish bosqichlari tasvirlangan rasmiy tarqatmalar, videolavha, proyektor, kompyuter, darslik, rangli qog'oz, qaychi, yelim, sariq rangli arqoncha, cho'p, qalam, ruchka, chizg'ich.

**Xavfsizlik qoidalari:**

### Ishni bajarish tartibi:

1. Kolleksiya va rasmlı tarqatmalarni diqqat bilan kuzating: to'g'ri va noto'g'ri rivojlanuvchi hayvonlarni aniqlab, ularni daftaringizga alohida ustunlarga yozib oling.




2. Hayvonlarning to'g'ri va noto'g'ri rivojlanishiga tegishli bo'lgan xususiyatlarni yozing:

To'g'ri rivojlanish: \_\_\_\_\_

Noto'g'ri rivojlanish: \_\_\_\_\_

3. Hayvonlarning to'g'ri va noto'g'ri rivojlanish jarayonlariga xos xususiyatlarni Venn diagrammasi asosida tahlil qiling.




4. Kolorado qo'ng'izi va chigirtkaning rivojlanish bosqichlarini hamda ularga tegishli bo'lgan rasmlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylang.

Kolorado qo'ng'izi: 

--	--	--	--

Chigirtka: 

--	--	--



5. Karam kapalagi lichinkasining modelini yasang.



Muhokama qiling va xulosa chiqaring.

## X BOB YUZASIDAN TOPSHIRIQLAR

1. Jadvalning birinchi satrida berilgan so'zlar o'rtaida bog'liqlik mavjud. Shu bog'liqlik asosida jadvalga mos tushunchani aniqlang.

1.	Bakteriyalar	Binar bo'linish
2.	Amyoba	?
3.	Achitqi zamburug'	?
4.	Xlamidomonada jinssiz ko'payganda	?

2. Jadvalni tahlil qiling. Jadvalda berilgan ma'lumotlar asosida bo'sh kataklarni to'ldiring.

Jinsiy hujayralar	Qayerda yetilishi	Vazifasi
Tuxum hujayra	Urug'chi tugunchasida	?
Markaziy hujayra	?	Spermiy bilan qo'shilib, endosperm hosil qiladi
Vegetativ hujayra	Changdonda	?
Generativ hujayra	?	Spermiylar hosil qiladi

3. "Shoxlangan daraxt" topshirig'i.

Chapdag'i birinchi qutidan boshlab savollarga "ha" yoki "yo'q" deb javob berib, tegishli o'q yo'nalishi bo'yicha davom eting. Berilgan 8 ta boshlang'ich nuqtadan to'g'ri yo'nalish va to'g'ri javobni ko'rsatuvchi nuqtani toping.

